

## ABDULLA ORIPOVNING "HAKIM VA AJAL" DOSTONIDAGI LINGVOPOETIK XUSUSIYATLAR

**SH.Bobojonov**

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Shahrizabz davlat pedagogika instituti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi mudiri*

**Ibragimova Dilnoza**

*Shahrizabz davlat pedagogika instituti<sup>2</sup>- kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Abdulla Oripovning "Hakim va ajal" dostonidagi lingvopoetik xususiyatlar haqida so'z yuritilgan va ayrim mulohazalar bildirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *"Hakim va ajal" dostoni, obraz, folklorizm, lingvopoetik tadqiq, qahramon qiyofasi, g'oyaviy maqsad, tarixiy shaxs xarakteri.*

Abdulla Oripov chinakam xalqning ehtiromi va e'tirofiga sazovor bo'lgan shoirdir. Uning xalq ardog'iga, el-yurt hurmatiga sazovor bo'lishining o'ziyoq ijodkorning she'r va dostonlari xalq ruhi va qalbining ifodasiga aylanganidan darak beradi. "U o'zining sermazmun, badiiy yuksak she'r va dostonlari, dramatik va publitsistik asarlarida ona yurtimiz va xalqimizga, azaliy qadriyatlarimizga mehr va sadoqat tuyg'usini beqiyos mahorat bilan tarannum etdi"<sup>1</sup>. Zero, Abdulla Oripov butun hayoti davomida "o'z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo'lib" yashab, ijod qilayotgan shoirdir. Chunki bu shoir uchun xalq mavhum tushuncha emas, u aniq mazmunga ega.

Abdulla Oripov dostonlari o'zining xalqchilligi voqea-hodisalarning xaqqoniy tasvirlanishi, tabiiyligi, milliy qadriyatlarga bo'lgan yangicha munosabatlarning tarkib topishi bilan farqlanadi. Bunday narsalarni dostonlardagi tarixiy davr, tabiat, e'tiqod va milliylikni ifodolovchi leksemalarning ko'p qo'llanishi, tarixiy (istorizm, arxaizm) so'zlarning turli xil ma'nolarida keng aks etishi, mumtoz she'riyatimiz san'atlariga ko'plab murojaat qilishdan anglash mumkin. Abdulla Oripov dostonlari o'zida muayyan tarixiy davrlarda mustaqillik uchun pinhona va oshkora kurash, ziddiyatli tuyg'ular silsilasini, boy madaniy tarixiy merosimizni sog'inish va unga intilish, o'zlikni anglash, milliy iftixor hamda g'urur tuyg'usini to'la namoyon etadi. Bu bilan birga mustaqillik davri insonlar, balki ijodkorlarning ruhiyati, ichki ruhiy kechinmalari, yangilanishlar bilan bog'liq orzu-armonlarini o'zida mujassamlashtirdi va dostonlarda qo'llanilgan har bir satr, har bir so'z, har bir element, uning ma'nosida musiqiylik va ohangdorlik vositasida muhabbat, vatanni ardoqlash va sevish, milliy an'analarga sodiqlik, insoniylik, ozodlik, erk kabi masalalar goh ramziy, goh shundayligicha bor bo'yi-basti bilan namoyon bo'ldi.

Abdulla Oripovning “Hakim va ajal” dostonida xalq ruhiyati, ijtimoiy vaziyatning barcha qirralari o‘z ifodasini topgan. Ushbu doston she’riy shaklda yozilgan bo‘lib, dostonning har bir satri o‘quvchini hikoya tafsilotlari, voqealar ketma-ketligi, qahramon nutqi va ifoda qolipi bilan tanishtiradi. Abdulla Oripov “Hakim va ajal” dostonida tarixiy shaxslar, ayniqsa, buyuk olim va tabib Ibn Sino obrazlarini o‘zbek xalqida keng tarqalgan afsona va ertaklar asosida tasvirlaydi. Dostonning har bir satridagi fikrlar umuminsoniy mohiyatga ega bo‘lsa-da, betakror o‘zbekona ohang shoirning jonli tasavvuriga qanot bag‘ishlaydi. Abdulla Oripov bu ijtimoiy voqelikni ochib berish uchun jonli xalq tiliga murojaat qiladi. Badiiy asarda tarixiy shaxslar obrazini yaratish oson emas. Negaki, u o‘zining shaxsiyati va faoliyati haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi. U badiiy asardagi obrazisiz ham odamlar ongida yashaydi. Ikkinchi ma’noda tarixiy shaxs obrazi juda murakkab hodisa sifatida qaraladi. Bu obrazning timsolida natija bermagan qandaydir yangilik, qandaydir chiziq topa bilish kerak. Shu bilan birga, tarixiy obrazda ijodkor o‘zining poetik konsepsiyasini namoyon etadi.

Abdulla Oripov dostonlarining leksik poetikasi davr ruhiga mos ravishda o‘ziga xos yangilanish davrini boshlab berdi. Bu davr yozma dostonlari tilida qo‘llanilgan so‘zlar o‘zlarining rang-barang ma’no jilolari bilan ramziy, mantiqiy, falsafiy, tarixiy, tanqidiy fikr ifodalash, jamiyat hayotidagi muammolarni, ozodlik, mustaqillik, erk tuyg‘ularini, milliy ruh va kayfiyatni aks ettiruvchi omil bo‘ldi. So‘zlarning yangi ma’nolari asosida ruhiy tozarish, o‘z milliy tarixini anglash, milliy o‘zlikka intilish, diniy va milliy qadriyatlarimizni tiklash, sevgi va sadoqatni, ezgulikni ulug‘lash, inson ichki ruhiy olami, uning erki, ozodligi uchun kurash tasvirlari yaratildi. Ushbu vazifani dostonlarda qo‘llangan har bir so‘z o‘z imkoniyatlari darajasida aks ettirdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdurahmonov H., Mahmudov N. So‘z estetikasi. T., Fan, 1981. - 60 b.
2. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. T., 2001, 389-b.
3. Asallayev A., Rahmonov V., Musurmonqulov F. Badiiy san’at jozibasi. T., 2005. - 64b.
4. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. T., Fan, 1985. – 200 b. 84